

## XALQ QO‘SHIQLARI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.

*Shahrisabz davlat pedagogika*

*Instituti Pedagogika fakulteti*

*2-bosqich 202-guruh talabasi*

**ISMOILOVA GULSANAM**

*Gulsanamismoilova696@gmail.com*

*+998914500698*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining eng keng tarqalgan janri – xalq qo‘shiqlarining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xalq qo‘shiqlari (alla, lapar, yor-yor, qo‘shiq, terma, mavsumiy qo‘shiqlar) xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy me‘yorlari, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, odob-axloq, mehr-oqibat kabi fazilatlarni asrlar davomida saqlab kelgan. Maqolada qo‘shiqlarning bolalar va o‘smirlar tafakkuri, hissiy dunyosi, milliy o‘zlikni anglashiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, xalq qo‘shiqlarini ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llashning pedagogik shartlari, maktabgacha va maktab ta’limidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Xulosa qilib aytganda, xalq qo‘shiqlari – nafaqat badiiy-estetik, balki kuchli tarbiyaviy qurol bo‘lib, ular milliy tarbiyaning ajralmas qismidir.

**Kalit so‘zlar:** Xalq qo‘shiqlari, tarbiyaviy ahamiyat, milliy tarbiya, axloqiy me‘yorlar, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, alla, laparlar, termalar, yosh avlod, pedagogik shartlar, estetik tarbiya, folklor.

### “НАРОДНЫЕ ПЕСНИ И ИХ ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ”

*Шахрисабзский государственный*

*Педагогический Институт*

*Педагогический Факультет*

*Студентка 2-курса, 202-группы*

*Исмоилова Гульсанам*

*Gulsanamismoilova696@gmail.com*

*+998914500698*

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль и значение народных песен – одного из самых распространённых жанров устного народного творчества – в воспитании подрастающего поколения. Народные песни (алла, лапар, ёр-ёр, терма, сезонные песни и др.) на протяжении веков сохраняли жизненный опыт народа, нравственные нормы, такие как трудолюбие,

патриотизм, уважение к старшим, доброта и взаимопомощь. В работе освещается влияние народных песен на мышление, эмоциональный мир и национальное самосознание детей и подростков с научно-теоретической точки зрения. Также показаны педагогические условия использования народных песен в воспитательно-образовательном процессе, их роль в дошкольном и школьном образовании. В заключении подчёркивается, что народные песни – это не только художественно-эстетическое, но и мощное воспитательное средство, являющееся неотъемлемой частью национального воспитания.

**Ключевые слова:** Народные песни, воспитательное значение, национальное воспитание, нравственные нормы, трудолюбие, патриотизм, колыбельная песня, лапары, термы, подрастающее поколение, педагогические условия, эстетическое воспитание, фольклор.

### “FOLK SONGS AND THEIR EDUCATIONAL SIGNIFICANCE”

*Shahrisabz State Pedagogical Institute  
Faculty of Pedagogy 2nd year student,  
group 202 Ismoilova Gulsanam  
Gulsanamismoilova696@gmail.com  
+998914500698*

**Annotation:** This article analyzes the role and importance of folk songs – one of the most widespread genres of oral folk art – in the upbringing of the younger generation. Folk songs (lullabies, lyrical songs, ritual songs, seasonal songs, epic songs, etc.) have preserved the life experience, moral norms, values such as diligence, patriotism, respect for elders, kindness, and mutual help for centuries. The paper scientifically and theoretically examines the influence of folk songs on children’s and adolescents’ thinking, emotional world, and national identity. Furthermore, the pedagogical conditions for using folk songs in the educational process, their place in preschool and school education are demonstrated. In conclusion, folk songs are not only an artistic-aesthetic phenomenon but also a powerful educational tool, forming an integral part of national upbringing.

**Keywords:** Folk songs, educational significance, national upbringing, moral norms, diligence, patriotism, lullaby, lyrical epic songs, younger generation, pedagogical conditions, aesthetic education, folklore.

Kirish. Xalq qo‘shiq-lari – milliy madaniyatning jonli guvohi. Xalq og‘zaki ijodining qadimiy va eng keng tarqalgan janrlaridan biri bu – xalq qo‘shiq-laridir[1].

Ular xalqning orzu-istaklari, qayg‘u-quvonchlari, mehnat jarayonlari, urf-odat va marosimlari bilan chambarchas bog‘liq holda vujudga kelgan. Asrlar davomida avloddan avlodga og‘izdan og‘izga ko‘chib, sayqallanib, nafislanib kelgan bu qo‘shiqlar xalqning ma‘naviy qiyofasini, uning axloqiy me‘yorlari va dunyoqarashini o‘zida aks ettiradi[2].

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biriga aylandi. Texnologiyalar rivoji, ijtimoiy tarmoqlarning keng kirib kelishi bolalar va o‘smirlarning ongiga turli xil, ba‘zan esa milliy mentalitetga zid bo‘lgan ma‘lumotlarning oqib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Aynan shunday sharoitda xalq qo‘shiqlari – bu bebaho manba bo‘lib, ular orqali yosh avlodga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, saxovat va odob-axloq kabi fazilatlarni singdirish mumkin[4].

Ushbu maqolaning maqsadi – xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyatini har tomonlama tahlil qilish, ularning turlarini va har bir turining yosh avlod tafakkuriga ta‘sirini ochib berish hamda ta‘lim-tarbiya jarayonida ulardan samarali foydalanish yo‘llarini ko‘rsatishdir.

**Adabiyotlar sharhi. “Xalq qo‘shiqlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati” mavzusida ilmiy-nazariy va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu borada bir qancha muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan.**

1. Folklorshunoslik yo‘nalishi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash, nashr etish va o‘rganishda M. Afzalov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, Z. Husainova kabi olimlarning xizmatlari katta. Ularning “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” (2005) va “O‘zbek folklori ocherklari” (2010) kabi asarlarida xalq qo‘shiqlarining turlari, mavzulari, poetik tuzilishi va ijro an‘analari batafsil yoritilgan. Ayniqsa, B. Sarimsoqovning “O‘zbek xalq lirikasi” (1986) asarida mehnat, mavsumiy va marosim qo‘shiqlarining badiiy xususiyatlari chuqur tahlil qilingan.

2. Pedagogik yo‘nalish. Xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati masalalariga K. Shodmonov, N. Ismoilova, M. Jo‘rayev, Sh. Turdiyev kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida keng to‘xtalib o‘tganlar. Xususan, K. Shodmonovning “Milliy tarbiya asoslari” (2008) asarida xalq pedagogikasi, jumladan xalq qo‘shiqlari orqali yosh avlodni tarbiyalashning an‘anaviy usullari, ularning bugungi ta‘lim-tarbiya tizimidagi o‘rni ochib berilgan. N. Ismoilovanning “Folklor va bolalar tarbiyasi” (2012) nomli ishida allalar va o‘yin qo‘shiqlarining maktabgacha yoshdagi bolalar ruhiyatiga ta‘siri eksperimental tarzda asoslangan.

3. Musiqa pedagogikasi. M. Jo‘rayev, I. Rajabov, Sh. Yoldoshev kabi mualliflarning “Musiqa va tarbiya” (2015), “Xalq qo‘shiqlari – tarbiya vositasi” (2018) kabi o‘quv qo‘llanmalarida qo‘shiq orqali estetik hissiyotlarni shakllantirish, cholg‘u va ovoz mashqlari bilan birga tarbiyaviy ta‘simni oshirish masalalari yoritilgan.

4. Xorijiy adabiyotlar. Jahon pedagogikasida xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati K. D. Ushinskiy, V. A. Suxomlinskiy, J. Dyuiy, B. T. Lixachev kabi pedagog va psixologlar tomonidan qayd etilgan. Ayniqsa, V. A. Suxomlinskiyning “Yurakni bolalarga beraman” (1969) asarida xalq qo‘shiqlari bolada vijdon, odob, go‘zallik hissini uyg‘otishning muhim manbai sifatida baholanadi. Shuningdek, B. T. Lixachevning “Pedagogika” (1996) darsligida xalq ijodi namunalari estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan biri ekanligi ta’kidlangan. Maqolada quyidagi vazifalar qo‘yilgan:
1. Xalq qo‘shiqlarining asosiy turlarini tavsiflash;
  2. Ularning axloqiy, estetik va vatanparvarlik tarbiyasidagi rolini asoslash;
  3. Maktabgacha va maktab ta’limida xalq qo‘shiqlaridan foydalanishning pedagogik shartlarini belgilash.

Xalq qo‘shiqlari nafaqat musiqa yoki adabiyot namunalari, balki xalqning ma’naviy merosi, tarbiya dasturidir[5]. Shu bois ularni o‘rganish va targ‘ib qilish – bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Xalq qo‘shiqlarining turlari va mazmuni. Xalq qo‘shiqlari mavzusi, ijro shakli va vazifasiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Ularning har biri o‘ziga xos tarbiyaviy salohiyatga ega[6].

1. Allalar (beshik qo‘shiqlari) – ona yoki buvining bola beshigiga qarab kuylaydigan ohangdor, sokin qo‘shiqlari[7]. Allalarda bola orzu qilinadi, unga salomatlik, aql-idrok, baxt tilanadi. Tarbiyaviy ahamiyati: allalar bola bilan ona o‘rtasida hissiy bog‘lanishni mustahkamlaydi, bolada xavfsizlik hissini uyg‘otadi, ona mehrini va tilning go‘zalligini his qiladi. Masalan: “Alla, alla, bolam, alla / Olma anor tolam, alla...” kabi qo‘shiqlar bolani asta-sekin milliy madaniyatga olib kiradi[8].

2. Mehnat qo‘shiqlari – dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan bog‘liq jarayonlarda kuylanadi. Ular mehnatni yengillashtirish, ruhiy ko‘tarinki holat yaratish uchun xizmat qilgan[9]. Tarbiyaviy ahamiyati: bolalar va o‘smirlarda mehnatga muhabbat, mehnatsevarlik, sabr-toqat kabi sifatlarni shakllantiradi. Masalan, “Xirmonda” qo‘shiqlari yoki “Sug‘orish” qo‘shiqlari.

3. Marosim qo‘shiqlari – to‘y, bayram, motam kabi marosimlarda kuylanadi. “Yor-yor”, “Kelinsalom”, “Qudalar” qo‘shiqlari shular jumlasidandir[10]. Tarbiyaviy ahamiyati: yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlaydi, kelin va kuyovga nasihatlar beriladi, kattalarga hurmat, oilada totuvlik, rostgo‘ylik targ‘ib qilinadi.

4. Mavsumiy qo‘shiqlar – “Navro‘z”, “Mehrjon”, “Qish” va “Bahor” qo‘shiqlari tabiat va mehnat bilan bog‘liq. Ular yosh avlodga tabiatni sevish, uni asrash, fasllarning inson hayotidagi rolini tushunishga yordam beradi[11].

5. Lirik va epik qo‘shiqlar (lapar, terma) – sevgi, sadoqat, jasurlik, qahramonlik kabi mavzularni aks ettiradi. “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish” turkumidagi termalar vatan himoyasi, halollik, do‘stlik sadoqati kabi yuksak fazilatlarni targ‘ib qiladi[12].

Har bir tur – bu xalq tarbiyasining alohida bir yo‘nalishi. Ularni bilish va yoshlarga yetkazish – milliy tarbiyaning asosiy tamoyillaridan biridir.

Xalq qo‘shiqlarining axloqiy tarbiyadagi roli. Axloqiy tarbiya – insonda yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, to‘g‘rilik va yolg‘onchilik kabi tushunchalarni shakllantirishdir. Xalq qo‘shiqlari bu borada juda kuchli ta’sirchanlikka ega.

a) Odob va hurmat. Ko‘pgina xalq qo‘shiqlarida kattalarni hurmat qilish, kichiklarni sevish, qo‘ni-qo‘shnilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish targ‘ib etiladi. Masalan, “Otangga, onangga duoyi xayr qil / Yolg‘iz o‘zingga jannatni sayr qil” degan qo‘shiq satrlari orqali ota-onaga hurmat bolalar ongiga ertaroq singdiriladi[14].

b) Halollik va rostgo‘ylik. “Yolg‘on yomon, to‘g‘ri yaxshi” degan oddiy hikmatlardan tortib, “Buloq suvi toza bo‘lur / Toza kishining so‘zi to‘g‘ri bo‘lur” kabi qo‘shiq misralarida rostgo‘ylik ulug‘lanadi[15]. Bolalar bunday qo‘shiqlarni eshitib, kuylab ulg‘aygan sari ularda yolg‘on gapirishga nisbatan salbiy munosabat vujudga keladi.

c) Saxovat va yordam berish. Xalq qo‘shiqlarida boshqalarga yordam qilish, qo‘li ochiq bo‘lish maqtaladi. “Bola kelsa qo‘l ochib / Ber boloqqa to‘yib-to‘yib” kabi allalar ham kichik yoshdanoq saxiylik tuyg‘usini rivojlantiradi[16].

d) Sabr-toqat va matonat. Ayniqsa ayollar qo‘shiqlari, “Yor-yor”larda kelinning yangi oilaga moslashishi, qiyinchiliklarga bardosh berishi mumtoz so‘zlar bilan ifodalanadi. Bu qo‘shiqlar qiz bolalarda sabr-toqat va irodani tarbiyalaydi[17].

Xalq qo‘shiqlari – bu quruq nasihat emas, balki badiiy, hissiy, musiqiy ta’sir. Aynan shuning uchun ular esda qolish va qalbga kirish jihatidan ma’ruza va ko‘rsatmalardan ko‘ra samaraliroqdir[18]. O‘qituvchilar va tarbiyachilar xalq qo‘shiqlari asosida bolalarda empatiya (boshqalarga hamdardlik), halollik, mas’uliyat hissini shakllantirishlari mumkin.

Estetik va vatanparvarlik tarbiyasi. Estetik tarbiya – insonda go‘zallikni his qilish, tushunish va qadrlash qobiliyatini rivojlantirishdir[19]. Xalq qo‘shiqlari so‘zning ohangi, ritmi, obrazlilik bilan yosh avlodning badiiy didini shakllantiradi.

Xalq qo‘shiqlarida tabiat tasviri alohida o‘rin egallaydi. “Ertalabdan turdim men / Gul teribman gulshanmen” – bunday satrlar bolalarda bahor, gullar, tongning go‘zalligini his qilish tuyg‘usini uyg‘otadi[20]. Qo‘shiqlar orqali bola atrofidagi dunyoni nafaqat ko‘z bilan, balki qalb bilan ham ko‘rishni o‘rganadi.

Bundan tashqari, xalq qo‘shiqlarida insonning ichki kechinmalari – sevgi, sog‘inch, quvonch, qayg‘u – juda nafis ifodalangan. Bu esa bolalarning hissiy intellektini rivojlantiradi, ularni ruhan boyitadi[21].

Vatanparvarlik tarbiyasi esa xalq qo‘shiqlarining yana bir muhim jihatidir. “O‘zbekiston – oltin beshik” ruhidagi qo‘shiqlar, “Yurtim”, “Vatanim” deya boshlangan termalar bolalarda Vatanga muhabbat, uning tabiatiga, tarixiga hurmat

hissini uygʻotadi[22]. Jasoratli botirlar haqidagi qoʻshiqlar (“Goʻroʻgʻlining tugʻilishi”, “Rustamxon” termalari) yoshlarda vatan himoyasiga tayyorlik, jasurlik va fidoyilik tuygʻularini rivojlantiradi[23].

Xalq qoʻshiqlari orqali oʻsmirlar oʻz xalqining tarixi, anʼanalari, qahramonlari bilan tanishadi. Bu esa ularning milliy oʻzlikni anglashida asosiy omil boʻlib xizmat qiladi[24]. Estetik va vatanparvarlik tarbiyasining uygʻunligi – barkamol shaxsni voyaga yetkazishning muhim shartidir.

Xalq qoʻshiqlarini taʼlim jarayoniga tatbiq qilish. Xalq qoʻshiqlari tarbiyaviy kuchga ega boʻlishi uchun ularni taʼlim-tarbiya muassasalarida tizimli va maqsadli qoʻllash zarur[25].

Maktabgacha taʼlim – bu bosqichda allalar, soddaroq lapar va oʻyin qoʻshiqlari muhim rol oʻynaydi. Bogʻcha tarbiyachilari bolalarni bevosita qoʻshiq kuylashga, qoʻshiqlar mazmunini tushuntirishga, qoʻshiqlar asosida ertak va sahna koʻrinishlarini tashkil qilishga yoʻnaltirilgan[26]. Masalan, “Oq padar” oʻyin qoʻshigʻi orqali bolalar mehnat va hamkorlikni oʻrganadilar.

Boshlangʻich maktab – 1-4 sinflarda ona tili va oʻqish, musiqa madaniyati darslarida xalq qoʻshiqlaridan keng foydalaniladi. Darsliklarda “Loyi-loy”, “Yomgʻir yomgʻir”, “Qoʻzichoq” kabi sodda qoʻshiqlar berilgan. Oʻqituvchi qoʻshiq matni orqali bolalarga soʻz boyligini oshirish, toʻgʻri talaffuz, mantiqiy fikrlashni oʻrgatishi mumkin[27].

Oʻrta va katta yoshdagi maktab oʻquvchilari uchun termalar, qahramonlik dostonlaridan parchalar, tarixiy qoʻshiqlar mos keladi. Musiqa darslarida cholgʻu asboblari bilan birga ijro etish, sinfdan tashqari tadbirlarda qoʻshiqlar tanlovi, folklor toʻgaraklari tashkil etish samarali usullardandir[28]. Sinflararo va maktab tadbirlari:

-“Xalq qoʻshiqlari kechasi”

-“Allalar olamiga sayohat”

-“Qadimgi qoʻshiqlar – bugungi talqinda” kabi loyihalar yoshlarda qiziquvchanlik va ijodiy faollikni oshiradi [29].

Oila – eng muhim muhit. Onalar, buvilar farzandlariga alla aytish, bayramlarda xalq qoʻshiqlarini kuylash – bu milliy tarbiyaning boshlangʻich va eng tabiiy shaklidir[30]. Afsuski, texnika asrida koʻp oilalarda allalar oʻrniga tv, planshet qoʻyilmoqda. Bu esa bolaning hissiy rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu bois ota-onalarga xalq qoʻshiqlari muhimligini tushuntirish ham pedagoglarning vazifasidir[31].

**Xulosa.** Xalq qoʻshiqlari – xalq maʼnaviyatining oynasi, tarbiyaning qadimgi va ishonchli vositasi. Ular yosh avlodda axloqiy goʻzallik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob va estetik didni tarbiyalashda kuchli taʼsirga ega. Allalardan

tortib, qahramonlik termalarigacha – har bir qo‘shiqda hayotiy haqiqat, insoniy fazilatlar, orzu va intilishlar mujassamlashgan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

-Xalq qo‘shiqlari turlari tarbiyaviy maqsadlar bilan bevosita bog‘liq;  
 -Ular bolalar va o‘smirlarda ijobiy axloqiy qarashlar shakllanishiga yordam beradi;  
 -Estetik va vatanparvarlik tarbiyasida qo‘shiqlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi;  
 -Ta‘lim jarayonida xalq qo‘shiqlaridan foydalanishning pedagogik shartlari mavjud va ularni amalga oshirish zarur. Tavsiyalar:

1. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida har bir kunning bir qismi (masalan, uyqudan oldin yoki ertalabki davra) allalar va qisqa xalq qo‘shiqlariga bag‘ishlansin.
2. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Musiqqa madaniyati” va “Ona tili va adabiyot” fanlarida xalq qo‘shiq namunalari asosiy o‘rinlardan birini egallasin. Har chorakda kamida bir marta sinfdan tashqari folklor tadbiri o‘tkazilsin.
3. Oilaga yo‘naltirilgan tavsiyalar: Ota-onalar bolalariga allalar aytish, bayramlarda xalq qo‘shiqlarini birgalikda kuylash, yoshlarni qo‘shiq tanlovlariga tayyorlashda qatnashsin.
4. Davlat va jamoat tashkilotlari mahalliy radiosida, televideniyesida, ijtimoiy tarmoqlarda xalq qo‘shiqlarini targ‘ib qiluvchi maxsus dasturlar, tanlovlar, marafonlar tashkil etsin.
5. Oliy ta‘limda bo‘lajak pedagoglar uchun “Xalq og‘zaki ijodi va tarbiya” maxsus kursi joriy etilsin. Texnologiyalar rivojlangan zamonamizda bolalar va yoshlarning qalbiga yo‘l topish, ularni yaxshilikka, ezgulikka chorlashda xalq qo‘shiqlarining o‘rni beqiyosdir. Ular – zamondoshlarimizga xalqning ovozi, tarixi, ma‘naviy merosidir. Bu boyligni asrab-avaylash, yosh avlodga to‘g‘ri yetkazish – har bir pedagog, ota-ona va jamiyatning muqaddas burchidir.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati ko‘p jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlikda qo‘llash, maktabgacha va maktab ta‘limida tizimli dastur sifatida tatbiq etish masalalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ushbu ish ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Afzalov M., Mirzayev T., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 2005. – 320 b.
2. Sarimsoqov B. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1986. – 240 b.
3. Shodmonov K. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 280 b.
4. Ismoilova N. Folklor va bolalar tarbiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 150 b.

5. Jo‘rayev M., Rajabov I., Yoldoshev Sh. Musiqa va tarbiya (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Musiqa, 2015. – 200 b.
6. Jo‘rayev M. Xalq qo‘shiqlari – tarbiya vositasi. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf, 2018. – 112 b.
7. Husainova Z. O‘zbek folklori ocherklari. – Toshkent: Fan, 2010. – 290 b.
8. Turdiyev Sh. Bolalar folklori va tarbiya. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – 168 b.
16. Karimova R. “Xalq qo‘shiqlari va ularning o‘smirlar tarbiyasidagi roli” // “Xalq ta’limi” jurnali, 2020, №4. – 42-45 b.
17. Tursunov A. “Folklor orqali estetik tarbiya” // “Pedagogik mahorat” ilmiy-metodik jurnali, 2019, №2. – 35-39 b.
18. UNESCO. “Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage: Folk Music and Oral Traditions” (2003 Convention). – Available at: <https://ich.unesco.org> (murojaat sanasi: 20.05.2026)

